TADQIQOTLARDA FOYDALANILGAN QO‘YLAR VA QO‘CHQORCHALARNI OZIQLANTIRISH VA PARVARISHLASH SHAROITLARI

Axrorov Ma’ruf Nasimjonovich

Assistant, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Raxmatillayeva Gulrux Ravshanovna

Talaba, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotlarda biofizikaviy usullarning (xususan, past intensivilikdagi lazer nurining) qo’ylar organizmiga ta’sirini o’rganish maqsadida tanlab olingan hayvonlarni oziqlantirish va parvarishlash sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqot obyektlari sifatida asosan qorako’l sovliqlari hamda ulardan tug’ilgan qo’chqorchalar foydalanilgan. Tajribadagi hayvonlar guruhlarga bo’lingan holda, bir xil fermer xo‘jaligigi sharoitida saqlangan. Harorat o’rtacha +24–30°C, havo namligi esa 55–75% darajasida me’yorlashtirilgan. Qo’ylarni saqlash va parvarishlash jarayonlari amaldagi zootexnika me’yorlari va zoogigiyena talablariga to’liq muvofiqlashtirilgan. Hayvonlarning oziqlanishi ularning biologik ehtiyojlarini to’liq qondirishga yo’naltirilgan bo’lib, quyidagi tartibda tashkil etilgan. Apreldan noyabrgacha bo’lgan davrda asosiy ozuqa manbai tabiiy yaylovlar iste’mol qiladi. Qo’chqorchalar 1 oylik yoshidan boshlab qo’shimcha konsentrlangan ozuqalar bilan boqilgan. Ozuqa miqdori yoshga qarab kuniga 60 grammdan 200 grammgacha oshirib borilgan.

Kalit so’zlar: ozuqa, fermer xo‘jaligi, oziqlantirish, arpa yormasi, konsentrat, yaylovda haydab boqilish, makkajo‘xori, suli, paxta shroti.

УСЛОВИЯ КОРМЛЕНИЯ И УХОДА ЗА ОВЦАМИ И ЯГНЯТАМИ, ИСПОЛЬЗУЕМЫМИ В ИССЛЕДОВАНИЯХ

Ахроров Маъруф Насимжонович
Ассистент, Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан
Рахматиллаева Гулрух Равшановна
Студент, Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан

Аннотация. В данном исследовании были проанализированы условия кормления и ухода за отдельными животными с целью изучения влияния биофизических методов (в частности, низкоинтенсивного лазерного излучения) на организм овец. В качестве объектов исследования в основном использовались каракульские овцы и их ягнята. Животные в эксперименте были разделены на группы и содержались в одинаковых условиях фермы. Температура поддерживалась на уровне в среднем +24–30°C, а влажность воздуха составляла 55–75%. Процессы содержания и ухода за овцами полностью соответствовали действующим зоотехническим стандартам и требованиям зоогигиены. Кормление животных было направлено на полное удовлетворение их биологических потребностей и организовано следующим образом. С апреля по ноябрь основным источником корма были естественные пастбища. Начиная с месячного возраста баранов дополнительно кормили концентрированным кормом. Количество корма увеличивали с 60 до 200 граммов в день в зависимости от возраста. Кормовой рацион составляли по стандартной схеме, включающей концентраты, голубую муку и витаминные добавки.

Ключевые слова: корм, ферма, кормление, ячменная крупа, концентрат, выпас на пастбище, кукуруза, овес, хлопковый шрот.

FEEDING AND CARE CONDITIONS FOR SHEEP AND LAMBS USED IN RESEARCH

Axrorov Maruf Nasimjonovich
Assistant, Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Raxmatillayeva Gulrux Ravshanovna

Student, Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Abstract. This study analyzed the feeding and care conditions of individual animals to investigate the effects of biophysical methods (specifically, low-intensity laser radiation) on sheep. Karakul sheep and their lambs were primarily used as subjects. The animals in the experiment were divided into groups and kept under identical farm conditions. The temperature was maintained at an average of 24–30°C, and the air humidity was 55–75%. Sheep housing and care processes fully complied with current zootechnical standards and animal hygiene requirements. The animals' feeding was designed to fully meet their biological needs and was organized as follows. From April to November, natural pastures were the primary source of feed. Starting at one month of age, the rams were additionally fed concentrated feed. The feed amount was increased from 60 to 200 grams per day depending on age. The feed ration was formulated according to a standard formula, including concentrates, blue flour, and vitamin supplements.

Key words: feed, farm, feeding, barley groats, concentrate, grazing, corn, oats, cottonseed meal.

Kirish. Koʻplab tadqiqot ishlaridan olingan maʼlumotlarga asosan, qoʻychilikda sifatli va yuqori mahsuldorlikka erishish uchun eng avvalo ularning zoti, boqish usullari, beriladigan ozuqalarning sifati hamda parvarish qilish sharoitiga bevosita bogʻliqligi qayd etilgan[1,2].

Hayvonlarni boqishda beriladigan ozuqalar, sifatli mahsulot yetishtirishda, hayvonlar organizmining rivojlanishida, oʻsishida hamda mahsuldorligini koʻtarilishida tayanch manba boʻlib xizmat qiladi. Shuni ham taʼkidlab oʻtish kerakki, hayvonlarga beriladigan ozuqa mahsulotlarining toʻyimlilik miqdori, yaʼni bu ozuqalar tarkibidan protein, makroelementlar, mikroelementlar hamda vitaminlar bilan boyitilgan boʻlishi kerak. Shundagina hayvonlar organizmi ehtiyojlarini qondira oladigan yuqori samarali ozuqalar bilan taʼminlab, biz koʻzlagan mahsuldorlikka erishishimiz mumkin[3].

Qo‘ychilik bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklarda bahorgi, yozgi va kuzgi yaylovlarda qo‘ylarni haydab boqishda yaylovlardagi o‘sadigan o‘t-o‘lanlar asosiy ozuqa manbai hisoblanadi. Tabiiy yaylovlarda o‘sadigan o‘t-o‘lanlarning vegetatsiyasi yilning samarali kelishiga mos holda 15-25 fevraldan boshlanib 20-25 martgacha cho‘zilib ketishi mumkin[4,5].

Usullar. Tabiiy yaylovlar o‘simliklarining botanik tarkibi chorvachilik yillarining nam, o‘rtacha namlik hamda qurg‘oqchil kelishiga qarab o‘zgarib turadi. Bundan tashqari, keyingi yillarda tabiiy yaylovlardan tartibsiz (1 gektar maydonga belgilangan normadagi bosh sonidan 2-3,5 marta ortiq) hayvonlarni boqish hisobiga, yaylovlarning mahsuldorligi va undagi o‘simliklarning bioxilma-xilligi keskin kamaydi, juda katta miqdordagi maydonlar degradatsiyaga, shamol eroziyasiga uchraganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak ulardan foydalanish imkoniyati minimal darajaga kelib qoldi[6].

Tajribalar o‘tkazilgan fermer xo‘jaligi ixtiyoridagi tabiiy yaylovlar o‘simliklarining botanik tarkibi qator o‘simliklar: shuvoq. Chitr, qashqa, yung’ichqa, efemerlar, yantoq, karrak kabi aralashmasi holida edirildi. Bunda ko‘k massa 17sn/ga, quruq massa 23.4 sn/ga, ozuqa birligi 17.62 kg/ga, hazmlanish protein 20.4 kg/ga, almashinuv energiyasi 20.7 mDj/ga.

Natijalar. Umuman olganda tajribalar olib borilgan fermer xo‘jaligi qo‘ylari boqilgan tabiiy yaylovning o‘simliklari aralashmasining hosildorligi yaylovda haydab boqish paytidagi qo‘ylar organizmining to‘yimli moddalarga bo‘lgan ehtiyojlarini qoplashi aniqlandi.

Xo‘jalikning iqlimiy va ozuqaviy holatlari haqida xulosa qiladigan bo‘lsak. Tajribadagi sovliqlar va ulardan olingan qo‘chqorchalar onasining qochirish davridan boshlab 4,5-5,0 oylik bo‘lguniga qadar, ya’ni onasidan va sutdan ajratilguniga qadar barchasi bir xilda oziqlantirildi hamda saqlandi. Tajribadagi sovliqlardan olingan va past intensivlikdagi lazer nuri bilan nurlantirilgan qo‘chqorchalar 30-35 kunligidan boshlab konsentrat bilan har bir boshiga, bir kecha-kunduzda ona sutiga qo‘shimcha ravishda 60 gr arpa yormasi bilan 2 oyligidan boshlab esa konsentratning miqdorini 1 bosh qo‘ziga 200 gr gacha ko‘paytirildi[7,8].

Qo‘chqorchalar onasidan ajratilganidan keyin yaylovda haydab boqilish davrida, yaylovda haydab boqilishdan tashqari, qo‘chqorchalar har 1 boshiga 25% dan arpa, makkajo‘xori, suli va paxta shroti saqlovchi konsentratlar aralashmasidan 300 gr dan qo‘shimcha oziqlantirildi.

Xo‘jalikdagi tajriba olib boriladigan qo‘chqorchalarni ajratib ularni doimiy nazoratda turishi, ularni parvarishlashda beriladigan ozuqalar hamda ularni yashash shart-sharoitlari, shu bilan birga qamab boqiladigan hayvonlar ham xo‘jalik va tumandagi mutaxassislar tomonidan doimiy nazoratga olinib talab darajasida amaliy ko‘maklashib keldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afanasyev, M. A. Studying Meat Productivity And Morphological Indicators Of Sheep By Biophysical Methods/M.A.Afanasyev, L.N.Skorykh, D.V.Kovalenko, A.S.Sergienko, D.I.Fursov//Research Journal of Pharmaceutical, Biological and Chemical Sciences. 2018. № 9 (3). P. 713-717.
2. Себежко, О.И. Динамика гематологических показателей поросят раннего возраста при воздействии ультразвуком с различными параметрами/О.И. Себежко//Инновационные разработки молодых ученых развитию агропромышленного комплекса: сб. науч. тр. по материалам IV Межд. конф./ФГБНУ ВНИИОК. Ставрополь, 2015. Вып. 8, т. 1. С. 502-505.
3. Селионова, М.И. Овцеводство Ставропольского края, настоящее и будущее/М.И.Селионова, Г.Т.Бобрышова//Овцы, козы, шерстяное дело. 2016. № 1. С. 4-7.
4. Бобоқулов Н.А., Шоназаров Д.Б., Жуманов С. Юқори сифатли қоракўл сурувларни яратишда афғон қўчқорларидан самарали фойдаланиш. Чорвачилик ва наслчилик иши. №6. 2020. 30-32 б.
5. Филатов А.С. Мясная продуктивность и откормочные качества баранчиков разных генотипов/А.С.Филатов, Н.Г.Чамурлиев, А.А.Танашова, И.С.Федоренко//Известия Нижневолжского агроуниверситетского комплекса:

наука и высшее профессиональное образование. 2014. № 4. С. 153-157.

6. Rajamurodov Z.T., Akhrorov M.N “Mayda shoxli kavshovchilar mahsuldorligini oshirish usullari” Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг АХБОРОТНОМАСИ. № 4 (273) 9-13 b.

7. Axrorov M.N. “Qisqa muddatli, past intensivlikdagi lazerli nurlanishning yosh qo‘zilarni go‘sht masuldorligiga ta’siri”. Scientific Bullettin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_5-сон. 65-70 b.

8. Rajamurodov Z.T, Jalilov M.X., Akhrorov M.N. The Possibility Of Increasing The Natural Resistance Of Tye Body OfThe KarakulianLanbs By Biophysical Methods. The Amerikan journal of Agriculture and biomedical engineering. Mart 2021. P. 12-16.